

VERTEBROGEN ETIOLOGIYALI BEL-DUMG'AZA SOHALARIDA OG'RIQLAR KUZATILGAN BEMORLARDA KONSERVATIV DAVO BILAN ARTKYUR PATCH QO'LANGANIDA SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Rahimbayeva G.S.
Shermuxamedova F.K.
Abduqaxxorov S.B.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi , Asab kasaliklari kafedrası
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17374562>

Kirish. Dunyo bo'ylab aholining katta qismi bel disk churasi bilan kasalanadilar, ostexondrozi kabi kasaliklar bilan kasalanadilar, buning natijasida bel sohasida, oyoq sohalarida tarqaluvchi kuchli o'g'riqlar va nevrologik simptomlar yuzaga keladi. Bu kasalliklar yosh va jins tanlamaydi , ko'pincha 25-45 yoshlarda , ayni ish layoqatiga ega bo'lgan yoshlarda ham uchrab turadi. Shu munosabat bilan bel dumg'aza sohalaridagi nevrologik o'g'riqlarni to'g'ri tashxislash va davolashning har tomonlama yondashgan holda kompleks davo qo'lash tibbiyotda juda dolzarb muammodir.

Tadqiqot maqsadi. Vertebrogen etiologiyali bel va dumg'aza sohalarida og'riqlar kuzatilgan turli xil yoshdagi bemorlarda bir qancha tadqiqot usularini solishtirib ko'rgan holda artkyur patchni samaradorligini aniqlash.

Material va usul. Tekshiruvga vertebrogen etiologiyali bel va dumg'aza sohalarida og'riqlar kuzatilgan bemorlardan 90 nafari dinamikada kuzatildi. Tekshiruv ostida 36 yoshdan 60 yoshgacha (o'rtacha yosh $44,8 \pm 1,7$) tashkil etadi. Bu bemorlar turli xil instrumental tekshiruvlar MRT , MSKT asosida kasalik holatini baholangan . Xalqaro shkalalar NPI (Numeric Pain Intensity) orqali og'riq kuchini va Laseg, Neyri, Vasserman tekshiruvi (Oyoqning ko'tarilish darajasi va sonning cho'zilish testi) asosida og'riq darajasini aniqlash. Bemorlar teng miqdorda 3 guruhga bo'lindi 1-guruh faqat nosteroid yalig'lanishga qarshi preparatlar, miorelaksantlar, Vitamin B preparatlari qabul qilgan bemorlar. 2-guruh yuqoridagi preparatlar va Artyukur patch bilan medikamentoz davo olgan bemorlar.

Natija. Bemorlarning og'riq darajalarining kamayishi, a'zolar innervatsiyasining tiklanishi bemor holatining yaxshilanishi, bel sohasi harakatchanligining tiklanishi, bel sohasi xarakatchanligining tiklanishi kabi hayotiy sifatlari taqqoslanildi. 1-guruh bemorlarda bu ko'rsatgichlar samaradorligi 60,7% tashkil qildi 2-guruh davolash boshlanishidan oldin NPI shkalasi bo'yicha o'g'riq kuchi o'rtacha 6.5 ± 0.6 qiymatga egaligi aniqlangan. Konservativ bilan artkyur patch qo'laganimizdan so'ng esa NPI shkalasi asosida o'g'riq kuchi 7-kunida 1.4 ± 0.2 ga tengligi va bu ko'rsatkich uzoq muddat past ko'rsatkichda qolganligi (1.7 ± 0.5) aniqlandi ($P < 0.001$) Bemorlar oyog'ining ko'tarilish darajasi va sonining cho'zilish testi bajarilganda davodan oldin 78% va 75,5% ni, 7-kunida 38% va 35,5% ni , birinchi oyda 8% va 13%ni tashkil qildi ($P < 0.001$) bu ko'rsatkichlar samaradorligi 89,5% tashkil qildi ($P < 0.001$)

Xulosa. Vertebrogen etiologiyali bel va dumg'aza sohalarida og'riqlar kuzatilgan bemorlarda konservativ davolash bilan Artkyur patch qo'laganimizda samaradorligi yuqori bo'lishi , moliyaviy tomondan tejamkorligiga erishishga olib keladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Finucane LM, Downie A, Mercer C, Greenhalgh SM, Boissonnault WG, Pool-Goudzwaard AL, Beneciuk JM, Leech RL, Selfe J. International framework for red flags for potential serious

spinal pathologies. J Orth Sports Phys Ther 2020; 50(7): 350-372.

2. Kreiner DS, Hwang SW, Easa JE, et al. An evidence-based clinical guideline for the diagnosis and treatment of lumbar disc herniation with radiculopathy. Spine J 2014; 14:180-191.
3. Omid-Kashani F, Hejrati H, Ariamanesh S. Ten Important Tips in Treating a Patient with Lumbar Disc Herniation. Asian Spine J. 2016; 10:955-963.
4. Hoy D, March L, Brooks P, Blyth F, Woolf A, Bain C, Williams G, Smith E, Vos T, Barendregt J, Murray C, Burstein R, Buchbinder R. The global burden of low back pain: estimates from the Global Burden of Disease 2010 study. Ann Rheum Dis 2014 ;73: 968–974.
5. Bo Zhang, Haidong Xu, Juntao Wang, Bin Liu, Guodong Sun. A narrative review of non-operative treatment, especially traditional Chinese medicine therapy, for lumbar intervertebral disc herniation (2017)
6. Alessandro Liguori 1, Marco Pandolfi 2, Martina Gurgitano , Antonio Arrichiello , Letizia Di Meglio , Salvatore Alessio Angileri , Anna Maria Ierardi , Aldo Paolucci , Federica Galli , Elvira Stellato , Gianpaolo Carrafiello. Image-guided percutaneous mechanical disc decompression for herniated discs: a technical note (2020)